

## TEXNOLOGIYA DARSLARINI YANGILIKNI KASHF ETISH ORQALI TASHKIL ETISHDA QO'LLANADIGAN USULLAR

Seytnazarova Zarafshan Menlibaevna  
Qoraqolpoqston Respublikasi Chimboy tumani  
9-sonli umumiy o'rta ta'lif maktabining  
Texnologiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada texnologiya darslarini yangilikni kashf etish orqali tashkil etishda qo'llanadigan usullardan foydalanish samarasi haqida yoritilgan bo'lib, unda bir qancha zamonaviy texnologiyalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'z:** qiziqish, hunar, texnologiya, qobiliyat, kasb, zamonaviy texnologiyalar

Barchamizga ma'lumki, Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad mакtab faoliyatini demokratlashtirish uning insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv-tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lif to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. Tabiiyki o'z ishining ustasi, bilimdoni bo'lgan yuqori samarali pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llayotgan, individual o'z ish uslubiga ega, mas'uliyatli mutaxassislar olib borayotgan ishlar ta'lif samaradorligini boyitish, rivojlantirish va yangiliklar bilan ravnaq topishida muhim rol o'ynaydi. Pedagogik tajriba amaliy faoliyat jarayonida, aynan texnologiya darslarida paydo bo'ladi. Uning mazmuni pedagogik bilim, malaka va ko'nikma, shaxsning shakllanishi bilan belgilanadi. Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlashda ma'lum mezonlarga asoslanish kerak. Bunda eng muhim mezon- o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatida qo'llaydigan ta'lif-tarbiyaning ilg'or shakl va usullaridir. Bu uni oddiy o'qituvchidan ajratadigan muhim belgi hisoblanadi.

**"Yangilik kashf etib o'rganamiz" usuli.** Bu yondoshuv o'quvchilarning egallagan nazariy bilimlarini amaliyatga tadbiq etish bilan bir qatorda ularning o'z-o'zlarini rag'batlantirish orqali bilim va ko'nikmalar to'plashlariga sharoit yaratadi.

**Asosiy tamoyillari quyidagicha:**

- O‘rganishdan maqsadni avvaldan aniqlab olish talab qilinadi.
- O‘rganish jarayoni ma’lum bir topshiriqqa yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

**Topshiriq quyidagilarni ta’minlaydi:**

- Tayanch ma’lumot olish uchun asos;
- O‘quvchi uchun notanish bo‘lgan ma’lumotga chuqur kirib borishiga undaydigan so‘rovga e’tibor berish
- Oldindan aniqlangan va sog‘lom tarzdagi o‘rganishga asoslangan natijalar.

Muvaffaqiyat – faoliyat-yutuq motivatsiyasiga asoslangan.


**Guruhdagi hamkorlik:**

- fikr va faoliyatni rag‘batlantiradi
- mushohadaga chorlaydi
- guruh ichida ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta’minlaydi.




Shaxs yoki guruhning ehtiyojidan kelib chiqqan holda o‘qituvchining qo‘sajak hissasiga ajratilgan vaqt chegaralangan. O‘qituvchi asosan jarayonni yengillashtiruvchi va ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta’minlovchi shaxs vazifasini o‘taydi. Kamdan-kam hollarda o‘qituvchi ma’lumot bilan ta’minlaydi.

**“Globus” usuli.** Bunda globus maketi darsning asosini tashkil etadi. Ma’lumki, “Globus” asosan shimol, janub, g‘arb, sharq, ekvador va meridian chiziqlaridan iborat. Darsni 6 qismga bo‘lgan holda rejalshtirib olamiz. Har bir qismda bittadan usuldan foydalanamiz. Bunda globusni aylantirgan holda darsimizning tashkiliy qismini boshlaymiz.



**“Moychechak” usuli.** O’tilgan mavzu shu usul orqali so’raladi. Moychechak barglariga savollar yoziladi. O’quvchilar savollarga javob beradi va moychechak hosil bo’ladi.



Xulosa qilib aytganda, texnologiya darslarida bo’shilqlarni to’ldirish uchun turli fanlar bilan bog’lab o’tish, interfaol usullardan foydalanish, yangilikni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. –T.: TDPU, 2004-yil.
2. R.J.Ishmuhamedov. Innovatsion ta’lim samaradorligini oshirish yo’llari. 2004.
3. Internet saytlari: -ZiyoNet .uz, - kitob.uz